UO‘K 821.512.133

TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ROMANIDA UCH OG‘AYNI ARXETIPIK OBRAZI

F.O.Mamtaliyeva

Maqolada yozuvchi Tohir Malikning “Shaytanat” romanidagi uch og‘ayni arxetipik obrazi paradigma sifatida tahlil qilingan, paradigma birliklari – to‘ng‘ich, o‘rtancha, kenja orasidagi integratsiya va oppozitsiyalar aniqlangan. Uch og‘ayni arxetipik obrazi sxemasining “Shaytanat” (T.Malik), “Cho‘qintirgan ota” (M.Pyuzo), “Uch mushketyor” (A.Dyuma) asarlaridagi variantlari struktur va qiyosiy-tipologik metodlar asosida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *paradigma, Qobil sindromi, arxetiplar spirali, to‘ng‘ich, o‘rtancha, kenja.*

В статье архетипический образ трех братьев в романе писателя Тахира Малика “Шайтанат” рассматривается как парадигма, выявляются интеграция и оппозиции между единицами парадигмы (старший, средний, младший). На основе структурного и сравнительно-типологического методов рассмотрены варианты схемы архетипического образа трех братьев в произведениях “Шайтанат” (Т.Малик), “Крестный отец” (М.Пьюзо) и “Три мушкетера” (А.Дюма).

Ключевые слова: *парадигма, синдром Каина, архетипическая спираль, старший, средний, младший.*

Kirish

Arkadiy Goldenbergga ko‘ra, “arxetiplarning barqarorligi tipologik takrorlanuvchanlik, konkret material (“protoshakl”)dan abstraksiyalanganlik, matritsalik, vorisiylik va avloddan avlodga o‘tish qobiliyati” [1. B. 7] kabi asoslar bilan belgilanadi. Arxetip muayyan ijodkor yaratig‘ida “jonlanar” ekan, nafaqat invariant sxemadagi xususiyatlarni o‘zida saqlashi yoki yangi sxemalarni qamrab olishi mumkin. Ayni shu o‘zgarish “arxaik sxemadan og‘ish” (E.A.Balburov)ning ko‘rinishidir. Demak, arxetipning qo‘llanishi bevosita umumiylik-xususiylik dialektik kategoriyasiga mos keladi.

Nisbatan bir davrda yozilgan Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanidan farqli o‘laroq, “Shaytanat”da arxetipik sxema jamiyatdagi mavjud ijtimoiy toifalar, ushbu toifa vakillari orasidagi munosabatlarni emas, balki bitta “to‘da” ichidagi o‘zaro kurash, xiyonat-sadoqat, jinoyat-jazo masalalarini aks ettirishi bilan xarakterlidir. T.Malik romanida “shaytanat” olamidagi uch og‘aynining ma’naviy-ruhiy, intellektual tomondan farqli jihatlariga e’tibor beriladi.

Invariant sxemadan farqli romanda uch og‘a-inining bir maqsad sari safarga otlanishi emas, balki turli maqsadlarni ko‘zlab safarga chiqqanlarning mavjud vaziyatda bir uyaga birlashib qolgani tasvirlanadi.

Materiallar va usullar

“Shaytanat” romanini unda jinoiy to‘da a’zolarining qismati tasvirlanishi jihatidan Mario Pyuzoning “Cho‘qintirgan ota” romani bilan o‘zaro qiyoslab o‘rganish mumkin. Har ikki asar bosh qahramonlari (Vito Karleone – Asadbek) zulm qurboni bo‘lgach, najotni zulmat saltanatidan topishga, kuch-qudratini isbotlashga urinish asnosida jinoyat olamiga qadam qo‘yadi. Voqealarning “oila”ga boshqa “oila” yoxud dushmanlarning hujum uyushtirishi (“Cho‘qintirgan ota”da *Vito Karleonega suiqasd* – “Shaytanat”da *Zaynabning o‘g‘irlanishi*) epizodi bilan boshlanishi ham ikki romanning mushtarak nuqtalaridandir.

Natijalar va muhokama

Ta’kidlash joizki, “Cho‘qintirgan ota” romanida ikkita arxetipik sxema: *uch og‘ayni* va *uch og‘a-ini* arxetipik obrazi mavjud. Birinchi sxema Klemensa – Tessio – Vito Karleone, ikkinchi sxema Donning o‘g‘illari Santino – Fredo – Maykl triadasidan iborat. Vito Karleonening Klemensa va Tessio mansub ji-

noyat olamiga beixtiyor qo‘shilishi bilan uning kenja o‘g‘li – mutlaqo boshqa olam vakili bo‘lgan Maykl-ning oxir-oqibat vorisga aylanishi deyarli o‘xshash. Klemensa jismonan kuchli, Tessio ayyor, Vito esa mulohazali bo‘lgani singari Vitoning o‘g‘illari ham uch xil fe’l-atvor egasi edi: Santino jahli tez, yengiltabiat, Fredo bo‘sh-bayov, Maykl otasi kabi mulohazali bo‘lib, keyinroq uning haqiqiy izdoshiga aylanadi. Voqealar rivoji davomida ikki sxema bir-birini to‘ldirib, invariant sxema o‘zagini takrorlaydi.

Asar nomi	“To‘ng‘ich”	Xususiyati	“O‘rtancha”	Xususiyati	“Kenja”	Xususiyati
“Cho‘qintirgan ota”	*Vito Karleone*	Birinchilik, hukmronlik	*Klemensa*	Bo‘ysunuvchi, itoatkor	*Tessio*	Aqlli, lekin qo‘rqoq
	Santino (Sonni)	Birinchilik, mavjud vaziyatda (vaqtincha) hukmronlik vazifasini bajarishi	*Frederiko (Freddo)*	Mavjud tartiblarga bo‘ysunuvchi, qo‘rqoq, o‘ziga nisbatan ishonchi past, kaltafahm	*Maykl*	Akalariga o‘xshamagan, mavjud tartiblarni buzuvchi, aqlli, ehtiyotkor
“Shaytanat”	*Asadbek*	Birinchilik, hukmronlik	*Haydar*	Buyruqlarni bajarishga odatlanganlik, o‘zidan “zo‘r”larga sig‘ingandek yashash, kaltafahmlik	*Mahmud*	Mavjud tartiblarni buzuvchi, ehtiyotkor, aqlli

“Shaytanat” romani qahramonlari bir tana a’zolari sifatida beriladi. Asadbek *yurak* deb qiyoslanadigan to‘dada Haydarning *qo‘l-oyoq*, Mahmudning *bosh* [2. B. 82]ga mengzalishi bejiz emas. *Yurak* his-tuyg‘ularga erk berar ekan, *qo‘l-oyoq* ongsiz ravishda unga ergashadi, lekin *aql* ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib turadi. Ko‘rinadiki, har ikki asarda arxetip genezisida mavjud “to‘ng‘ich – o‘rtancha – kenja” sxemasiga xos yadro – *uch xil tabiatlilik* saqlanib qolgan. Ammo “Shaytanat” romanida *yurak – qo‘l-oyoq – bosh* triadasi qism-butun munosabatiga asoslangan bo‘lib, bir-biriga uzviy bog‘liq. Tanadagi bir zaruriy a’zo ishlamasa, u avvalgiday normal faoliyat yurita olmaydi. Shu jihatdan M.Pyuzodan farqli o‘laroq, “Shaytanat” muallifi “nafsning kelajagi zulmdir, zulmning kelajagi esa xorlikdir”, – [3. B. 572] degan fikrni asar shioriga aylantiradi. Demakki, bir tomondan muallif arxetipik obrazlar yadrosini nazardan qochirmaslikka harakat qiladi, ikkinchi tomondan o‘zining diniy-ma’naviy pozitsiyasini ham unutmaydi. Qahramonlar o‘limi Mahmud – Kesakpolvon – Asadbek ketma-ketligida tasvirlanishi ham fikrimizni dalillaydi.

Y.Meletinskiy ertakda qahramonning raqiblari “o‘ziniki” va “begona” tarzida bo‘linishi, “o‘ziniki” bilan raqobat qahramonning bevosita kelgusidagi ijtimoiy maqomi bilan bog‘lanishi haqida yozadi [4. B. 49]

Har ikki asarda “begona” va “o‘ziniki” bo‘lgan raqiblar kurashi aks etadi. Santinoning bevaqt o‘ldirilishi kelgusida Maykl bilan yuzaga keladigan “to‘ng‘ich – kenja” ehtimoliy konfliktini yo‘qqa chiqaradi, Freddining “valine’mat” e’tiboridan qolishi bilan “o‘rtancha – kenja” oppozitsiyasi yuzaga chiqmaydi, Maykl-ning yangi “don” ekanligi uzil-kesil hal bo‘lgandek tuyuladi. Vito Karleonening boshqaruvni Mayklga topshirishi natijasida “Klemensa – Tessio – Maykl” triadasi shakllanadi. Oilaning boshqa dushmanlari, hatto Tessio va Klemensaning Maykl voris bo‘la olishiga ishonmasligi, Tessioning xiyonati va shunga muvofiq jazolanishi uch og‘a-ini haqidagi ertaklarda aks ettirilgan “2+1” sxemasini takrorlaydi.

“Arxetiplar spirali” yoki “Qahramonning sayohati” sxemasiga ko‘ra, o‘n ikkita arxetip qahramon spiralsimon holatda joylashgan bo‘lib, har bir inson ana shu arxetiplar doirasida aylanib yuraveradi: oddiy odam → yaxshi odam → qahramon → g‘amxo‘r odam → izlovchi → isyonchi → oshiq → yaratuvchi → hukmdor → sehrgar → dono → hazilkash [5].

“Cho‘qintirgan ota” romanida Vito Karleone o‘z-o‘zidan Klemensa va Tessio uchun do‘st – g‘amxo‘r funksiyasini to‘xtatib, ota – hukmdor funksiyasini bajarishga o‘tgani anglashiladi. Karleone avvalboshdan “kapitan”lari o‘rtasida konflikt yuzaga kelmasligi yoxud birlashib, unga qarshi fitna uyushtirmasligi uchun “Tessio va Klemensaning vazifalarini ham bo‘lishtirib qo‘ydi va yil sayin asta-sekin bir-biridan ixlosini qoldira boshladi” [6. B. 281]. Shuning uchun ular orasida ziddiyat yuzaga kelmaydi. Tessioni xiyonatga boshlagan narsa Vitodan keyin “don” maqomini egallashga urinish emas, balki dushmanlar qo‘lida yakson bo‘lish qo‘rquvidir.

“Shaytanat”da esa “begona” raqiblar (Hosilboyvachcha, Xongirey) bilan bo‘lgan kurashdan ko‘ra “o‘ziniki” bo‘lgan raqiblar kurashi markazda turadi. Mohiyatan, Asadbek ham Haydar va Mahmud uchun hukmdor – ota funksiyasini bajarayotganini sezish qiyin emas. “To‘da” ichida o‘zining ustunligi bilan ajralib

turgan Asadbek bora-bora nafaqat o‘z oilasi, ayonlari va to‘dasidagi yigitlar, hattoki o‘zi o‘sib-ulg‘aygan mahallasi uchun ham g‘amxo‘r va hukm chiqaruvchiga aylanib qoladi. Uning Haydardan ko‘ra ko‘proq Mahmudga e’tirof va ishonch bildirishi esa “Haydar – Mahmud” konfliktini yuzaga chiqaradi.

Y.Meletinskiy turli xalqlarning mifologik tafakkurida “baland-past”, “chap-o‘ng”, “do‘st-dushman, katta-kichik kabi semantik qarama-qarshiliklar mavjudligi haqida fikr bildiradi [7. B. 25]. Tilshunos olim A.Nurmonovga ko‘ra, til birliklari paradigmaga birliklarning har birida takrorlanadigan birlashtiruvchi belgi va a’zolarni bir-biridan farqlovchi differensial belgilar asosida birlashadi. Shuningdek, olim “oq-qora, uzun-qisqa, achchiq-chuchuk va h.k. birliklar kishi ongida assotsiatsiyani hosil qilishiga ko‘ra eng kam a’zoli kichik paradigmani hosil qilishi, ularda zidlik munosabati paradigmani shakllantirishi” [8. B. 106] ni aytadiki, uch og‘a-ini arxetipiga ham zidlik asosiga qurilgan paradigma sifatida qarash mumkin.

Xususan, *uch og‘a-ini arxetip obrazi* paradigmasi uchun birlashtiruvchi belgi bir oila, bir uyaga mansublik; bitta zamon (makon)da harakatlanish; differensial belgi esa paradigma a’zolarining fe’l-atvor, xususiyatlaridagi o‘ziga xoslik, syujet motivlari (sinovlar yo‘li – sinov: yo‘l tanlash – sinovni bajarish – mukofot/jazoga erishish)dagi ishtiroki va sinov natijasidir.

“Cho‘qintirgan ota”dan farqli o‘laroq, “Shaytanat”-da triadadagi har bir qahramonga alohida urg‘u berilgani uchun ham uni paradigma sifatida o‘rganish qulaylik tug‘diradi.

Ushbu paradigmada bosh zidlanish “Asadbek – Haydar – Mahmud” (to‘ng‘ich – o‘rtancha – kenja) sxemasidir. Asadbek otasi “xalq dushmani” sifatida qamalgach, maktabga keyinroq chiqqani, yuqori sinfdagi Jalil uning eng yaqin oshnasi ekanligi Asadbekning Haydardan katta ekanligini ko‘rsatadi. Demak, mazkur oppozitsiya arxetip sxema bosh semasi (yosh jihatidan zidlanish)ni aynan takrorlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy maqomni ham bilvosita aks ettiradi: *hukmdor – o‘ng qo‘l vazir – dono maslahatchi*. Bu asosiy sxema ichida qahramonlarning xarakter xususiyatlari, ijtimoiy kelib chiqishi, syujet motivlarini bajarish/ bajarmaslikka ko‘ra Asadbek/Mahmud – Haydar (to‘ng‘ich/kenja – o‘rtancha), Asadbek/Haydar – Mahmud (to‘ng‘ich/o‘rtancha – kenja), Mahmud/Haydar – Asadbek (o‘rtancha/kenja – to‘ng‘ich), Asadbek – Haydar (to‘ng‘ich – o‘rtancha), Asadbek – Mahmud (to‘ng‘ich – kenja), Haydar – Mahmud (o‘rtancha – kenja) oppozitsiyalari ajratiladi.

Bu o‘rinda asarning dastlab qissa janrida yaratilishi ko‘zda tutilgani, keyincha katta hajmli sarguzasht romanga aylanganini ham yoddan chiqarmaslik zarur. Ya’ni 1-kitobda qissa janri kanonlariga muvofiq bosh qahramon – Asadbekninggina o‘tmishi, xarakteriga urg‘u berilgani holda, a’yonlar – Kesakpolvon va Mahmud qisqa epizodlardagina tasvirlanadi. Ikkinchi kitob voqealaridan boshlab Mahmud, Kesakpolvon obrazlari, ularning xarakteri batafsil ochiqlanadi.

1. *Asadbek/Mahmud – Haydar zidligi*. Roman problematikasi va muallifning diniy-ma’naviy pozitsiyasiga ko‘ra, ushbu ziddiyatni bosh ziddiyat sifatida belgilash mumkin.

Haydarning “valadi zino” ekanligi uni, avvalo, Asadbekdan, so‘ngra Mahmuddan ham bir pog‘ona quyilatadi. Abdurahmon tabib intuitiv sezgi bilan “Sen... <...> – Valadi zinoga o‘xshaysan...” [9. B. 32], – deyishida asos bo‘lib, muallif Haydarning uchiga chiqqan o‘g‘ri va zo‘ravonligi, rahmsizligining bosh sababi sifatida uning “valadi zino” ekanligiga urg‘u beradi. Mohichehraning sharmandalikdan qo‘rqib shaharga ketishi, bola tug‘ilgach urushga ketishi, Haydarning yetimxonaga topshirilishi, avji tarbiya vaqtida yonida ota-onasi bo‘lmagani sababli unda sof muhabbat shakllanmagan edi. Haydarning oilaviy muhiti, ayollarga munosabati, kuyovga bergan qizi Monikaning yengil-yelpi hayoti bilan Asadbek va Mahmud oilasidagi normal, o‘zbekona muhitda katta farq ko‘rinadi.

Asadbek otasi qamoqqa olinib, ukasi Samandar olamdan o‘tgach, onasining yagona suyanchiga aylandi. Maktabda Kesakpolvon “sharofati” bilan atrofdagi o‘zidan kichiklar tomonidan “xalq dushmanining o‘g‘ri o‘g‘li” sifatida tahqirlansa-da, qamoqdan qo‘rqqanidan emas, bolalarni jazolab qamalsa, onasining qarovsiz qolishini bilib, o‘zini tiyadi, g‘azabini ichga yutadi. Ya’ni Asadbek kasal onasining himoyachisi bo‘lish o‘zining burchi ekanligini anglaydi. Asadbekning xotini Manzuraga qattiq gapirmasligi, Sadir qimorbozning ayolini yolg‘iz tashlab qo‘ymagani, Noilani o‘ldirgan Shilimshiqni surgun qilishi uning ayollarga nisbatan hurmati, g‘amxo‘rligi borligidandir. Mahmud ham onasidan mehr ko‘rmagan, uning abgor ahvolidan nafratlangan bo‘lsa-da, qalbining tub-tubida unga nisbatan iliqlik borligi sabab tashlab qo‘ymaydi. Vaholanki, Kesakpolvon onasining tirik ekanligini bilganda, uchrashganda ham unga nisbatan hech qanday hislarni tuymaydi, onasi bilan uyga ketar ekan, “baribir qayerdadir yashashim kerak-ku” [6. B. 108], – degan vaj bilangina unga ergashadi. Lekin samimiy tuyg‘ulardan mahrum bo‘lib ulgurgani uchun “uydagi qo‘lga ilinarli narsalarni o‘mardi-yu, g‘oyib bo‘ldi” [6. B. 108].

Kesakpolvonning ma’naviy-axloqiy jihatdan tubanligini ko‘rsatuvchi obraz – Asadbekning eng yaqin do‘sti Jalildir. Dunyoda uchta narsa yo‘q, bilasanmi?... <..> – Rostdan bilmaysanmi? Xo‘p, os-

monga ustun, hovuzga qopqoq qilib bo‘lmaydi. Lekin oshpichog‘ingga qin qilish qiyinmas. Uchinchisini bilmasang bilib ol: og‘ayning Haydar pakanada vijdon yo‘q! Bu haromi oshnang dunyoda vijdon nima ekanini bilmay o‘tar” [10. B. 155–156].

Asadbek/Mahmud – Haydar qiyosida yana bir muhim nuqta bor. Asadbek va Mahmud “ildizi bir”ligiga ishonadi, shu bois biroviga kelgan hujum va tazyiqlarga qarshi birgalikda kurashish kerakligini yaxshi tushunadi. Haydar esa o‘z ildiziga bolta urilishidan xavotirda yashaydi. Haydardan farqli ravishda Asadbek va Mahmud birovga, ayniqsa, “musulmon birodar”iga qaramlikni yoqtirmaydi. Xongireyga Asadbek “Sening kuchingni bilaman. Lekin sendan qo‘rqmayman. Birovdan qo‘rqqan kunim o‘zimni o‘zim otaman” [11. B. 376], – deb dadil javob bersa, Mahmud “Bizni o‘zbek (!) deydilar. Mayli, qaysilarimiz noahildirmiz, boshqadirmiz, lekin o‘zbekmiz, “o‘z”imizga “bek”miz. Qullikni hazm qila olmaymiz” [9. B. 289] – deya keskin fikrini aytadi. Bolalikdan, “detdom”dan boshlab, “zo‘r”larga xizmat qilib o‘rgangan Haydar esa taxtga da’vogar bo‘lgani bilan Xongirey og‘asining quli, qo‘g‘irchog‘i bo‘lib qolaverdi: “U Asadbekni yo‘lidan olib tashlab, o‘zlari yaratgan olamga tanho hukmronlik qilmoqchi edi. Oqibat nima bo‘ldi, avvalgi martabasidan-da pastlab ketmadimi? Har holda Asadbekdan keyin “ikkinchi odam” degan nomi bor edi. Endi-chi? “Xongireyning yugurdagi” degan unvonga yetishdimi?” [10. B. 260]

2. *Asadbek/Haydar – Mahmud zidligi*. Ushbu ziddiyatni to‘ng‘ich/o‘rtancha – kenja ziddiyatining variatsiyasi sifatida ko‘rib chiqamiz. Mahmud guruhning kichigi sifatida doim xizmatga shay ekanligi juda ko‘p o‘rinlarda beriladi: “Uchovlon yig‘ilib, yonlarida boshqa odam bo‘lmasa, dastyorlik vazifasi Chuvrindiga yuklanar edi” [2. B. 75].

Ma’lumki, kenja qahramon akalariga nisbatan zehn, kuch-qudrat bobida yuqori pog‘onada turadi. Mahmud triadada o‘zining aqli bilan ham, kuch-qudrati bilan ham ajralib turadi. “Cho‘qintirgan ota” romanida Maykl otasiga suiqasd tufayli dastlabki qadamni qo‘ygan, rafiqasi Apolloniya va akasi Santinoning o‘limi uning qarorini qat’iylashtirib, jinoyat olamiga butunlay o‘tgan edi. Mahmudning ushbu olamga kirib qolishi ham tasodifan yuz beradi. O‘n uch yoshida kasalxonada bir o‘limdan qutulib yotgan Mahmud ustozidan yetim qolganligini eshitadi va shaharga yangi hayot boshlash, onasini topish, o‘qish umidida keladi. Agar Mahmud “shahardagi “yaxshi odam” – Haydar bilan tanishmaganda boshqa taqdir egasi bo‘lar edi.

Odatda, Mahmud uzoqni ko‘rib ish qiladi, har bir qadamining kelajakdagi ahamiyati haqida chuqur o‘ylaydi. Masalan, “xojasi”ning Jamshidni birdaniga, ertalabga qadar o‘ldirish bo‘yicha shoshilinch hukmi to‘g‘ri emasligini sezgani uchun, soxta o‘lim sahnasini uyushtiradi.

Shuningdek, Asadbekdan marhamat kutganlar Haydarga emas, Mahmudga bosh urib borishi uning qalbini hali butkul “shaytanat” zahri qamrab olmaganini anglatadi.

“Asadbek *faylasufona fikrlar bilan mashg‘ul bo‘lmoqni yoqtirmaydi. Mushohada qilmoqni Chuvrindiga chiqargan*. Bir kuni u: “Kimning qalbi bo‘lmasa u baxtsizdir”, degan edi. *Kesakpolvon: “Bunaqa gaplaring bilan miyamning astarini teskari qilib yuborasan*”, deb so‘zini bo‘lgan, Asadbekka esa mana shu hikmat yoqqan edi. Hatto bir necha kun hikmatning mag‘zini chaqmoqchi bo‘lib o‘ylanib ham yurdi. Keyin esa... yodidan chiqardi” [11. B. 29]. Asadbekda Mahmud kabi chuqur mulohaza qilishga moyillik bo‘lsa-da, qalbidagi jaholat ustun kelaveradi. Mahmudda aynan “og‘a”lariga o‘xshamagan qalb borligi uchun ham hamma narsani taroziga solib ko‘radi.

“Cho‘loq bo‘ri” ertagida safarga chiqqan ikki katta aka “kulcha-ko‘machini g‘amlab ketgani holda kichkina o‘g‘ilning yig‘lab ketishi” epizodi bor. “Asadbek hech yolg‘iz yurmasdi. Bu tabiiy hol. Katta odamning tashvishi ham katta bo‘ladi, atrofidagi xavfi ham. Kesakpolvon atrofidagilarga qadrini namoyish etish uchun, og‘aynisiga taqlid qilib, u ham doimo bir-ikki yigit bilan birga bo‘lardi. Bu guruhda faqat Chuvrindigina yolg‘iz yurardi. U birovga taqlid qilishni xushlamas edi, qolaversa, gavdasiga, kuchiga ishonardi [11. B. 108].

3. *Haydar/Mahmud – Asadbek zidligi*. “Mutaxassislar arxetipik qahramon xarakteriga xos muhim xususiyatlar sifatida bo‘ysunmaslik, jangarilik, o‘jarlik kabilarni ko‘rsatishadi. Ayni shu xususiyatlari tufayli u mavjud holat bilan kelisha olmaydi, zulm va adolatsizlikka qarshi kurashga hamisha safarbar turadi” [12. B. 5]. Haydar va Mahmuddan farqli, Asadbekda arxetipik qahramonga xos xususiyatlar aniq ko‘rinadi. Yangi yil tunida ichgan qasamining ustidan chiqishi, ya’ni otasini olib ketganlardan qasos olishi uning o‘ziga nisbatan qilingan zulmga qarshi kurashi edi. Elchinni – o‘z rafiqasini qimorga tikkan otarchini tavbasiga tayantirishi ham Asadbekka xos qat’iy qaror edi. Xususan, deputat, Karimulla bilan dialoglarida Asadbekning mavjud holat bilan kelisha olmasligi namoyon bo‘ladi. Garchi o‘zi namoz o‘qimasa-da, munofiqlik, soxta dindorlikni hazm qila olmaydi. Haydar va Mahmudda bunday qat’iy qaror, hatto ushbu saltanatga kirib kelishiga asos bo‘ladigan katta bir sabab yo‘q edi.

4. *Asadbek – Haydar zidligi*. Aksar ertaklar va zamonaviy nasrda to‘ng‘ich va o‘rtancha obrazlarining xususiyatlari deyarli o‘xshash bo‘ladi. Lekin

sinchiklab e'tibor berilsa, ular orasida ham ko'plab farqli nuqtalarni ko'rish mumkin. Aleksandr Dyumaning "Uch mushketyor" asarida D'Artanyan Atosni yunonlarning sevimli qahramoni Axillga, Portosni Ayaksga, Aramisni Yusuf alayhissalomga qiyoslaydi [13. B. 108]. Portos Ayaks kabi kuchli bo'lsa-da, Ayaks Axill bilan tenglasha olmaganidek, u ham Atos bilan barobar mavqeda tura olmaydi. Portos Atosdan "loaqal libosining hashamati bilan undan o'tib ketishga urinib, xo'p ovora bo'lganidek", Haydar ham Asadbekka har jihatdan taqlid qiladi: Asadbekka o'xshab boloxonali uy qurib, qo'riqlovchi yigitlarni qo'yishi, Asadbekka taqlidan yonida odamlari bilan yurishi. Garchi ba'zi paytlarda o'z-o'ziga "Asadbekni odam qilgan menman" deb ham chiranadi. Mahmudning o'ldirilishi voqeasidan keyin ruhan hukmronlikka tayyorlanayotgan Haydarning hech qachon Asadbek o'rnini bosa olmasligiga urg'u beriladi.

"Tartibni yaxshi ko'radigan Asadbek duch kelgan joylarda o'tiravermasdi. Biron-bir choyxonaga borguday bo'lsa ham irkit ko'rpachalar, yog' tomgan sholcha-yu dasturxonni ko'rgach, bir zum qarab turardi-da, so'ng indamay iziga qaytardi. Kesakpolvonga esa farqi yo'q edi. Charchagan bo'lsa, irkit ko'rpachaga ham yonboshlab olaverardi" [9. B. 13].

5. *Asadbek – Mahmud zidligi*. Odatda, arxetip sxema genezisida to'ng'ich-kenja oppozitsiyasi hamisha barqaror. Asadbek va Mahmud munosabatlarida esa ayni shu ziddiyat mavjud emas. To'g'ri, Mahmud yosh jihatidan kichikligi, mulohazakorligi, shuningdek, avval ijtimoiy jihatdan og'alaridan past pog'onada ("chuvrindi") bo'lganligi, keyincha Asadbekning "dono vazir"iga aylanishi orqali maqomi ko'tarilishi, ehtimoliy voris ekanligi bilan kenja o'g'il funksiyasini bajaradi. Lekin "bosh qahramon" darajasiga ko'tarila olmasligi jihatidan ushbu qahramonga "tritagonist" obraz sifatida qarash mumkin.

"Tritagonist" hikoyadagi uchinchi eng muhim qahramon bo'lib, yunoncha "tritagonistes" – sahnadagi uchinchi aktyor yoki qahramon ma'nosini anglatadi. Qadimgi yunon dramasida tritagonist bosh qahramon va ikkinchi darajali qahramonga yordamchi rol o'ynagan. Uning dastlabki namunalari Sofokl va Evripidning tragediyalarida uchraydi. Ular ko'pincha bosh qahramonga maslahatchi, sirdosh sifatida xizmat qilgan [14].

Demak, Asadbek va Mahmud bir paytning o'zida ham oppozitsiya, ham mushtaraklik hosil qilganligini ko'rish mumkin. Mahmudning Asadbekka yaqinligi "Iliada" dostoni qahramonlari Axilles va Patroklning munosabatlariga o'xshaydi. Axilles uchun Patrokl ukasidek aziz bo'lgani singari, Mahmud Asadbek uchun go'daklik chog'ida vafot etgan ukasi Samandar kabi qadrli edi. Axilles Patroklning o'limidan keyin g'azabini namoyon etadi. Asadbekning Mahmud qabri tepasida turib "Bu yer mening joyim edi, Mahmud ukam. Sen kelding... Senga qasd qilganni xor qilmasam, otimni boshqa qo'yaman, qasos olmagunimcha yoningga kelmayman" [9. B. 410], – deb qasam ichishi Haydar ustidan o'qilgan hukm sifatida yangraydi.

6. *Haydar – Mahmud zidligi*. "Uch mushketyor" asarida uchinchi mushketyor Aramisning Yusuf alayhissalomga o'xshatilishida uning tashqi go'zalligi, ayollarning unga tez muhabbat qo'yishi asos bo'lgandek ko'rinadi. Dyuma Aramisga uch og'a-ini arxetipidagi uchinchi qahramonga xos doimiy xususiyatlarni singdirib yuboradi: "Shovqinni kam qilib, ishni do'ndirib qo'yadigan Aramis" [13. B. 112]. Aramis Portosdan aql-zakovat borasida ancha aqlli edi.

Haydar va Mahmud ham bir-biridan tubdan farq qiladi. Tashqi ko'rinishda: "Mahmud Ehsonov ayni aytilgan vaqtda, bir daqiqa nari-beri qilmagan holda keldi. U bilan birga xonaga yoqimli atir hidi ham kirdi. Chuvrindi kun issiq bo'lishiga qaramay, oq-pushtiga moyil kostyum kiygan, qizil galstuk bog'lab olgan edi. Sochlarini silliq taragan, o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'iga tilla uzuk taqqan odamni birov "Chuvrindi" deb chaqirsa, kulgili holat yuz berardi" [11. B. 94].

Fikr va mulohazada: Haydar biron-bir masala ustida fikr yuritilganda tez, ammo sayozroq xulosa chiqarardi. Mahmud esa aksincha edi. Asadbek shuning uchun ham Mahmudga suyanardi [2. B. 73].

Y.Meletinskiy "past", "umidsiz" qahramonning eng xarakterli xususiyati sifatida u aka-ukalarning eng kichigi bo'lishi, xususan, turkiy va mo'g'ul xalq ertaklaridagi "kal" obrazi shunday qahramon ekanligi haqida yozadi [4. B. 27]. Mohiyatan, Asadbeklar to'dasiga kasalxonaning juldur kiyimida kirib kelgan "chuvrindi uka" oxir-oqibat to'daning "bosh"iga aylanishi folklordagi "kal" obrazining transformatsiyasidir.

Asadbek taxtni meros qoldiruvchi "ota" sifatida Haydar va Mahmuddan qay biri taxtga loyiqligini sinash uchun shart qo'ymaydi. Garchi ko'nglida Haydar va Mahmudni alohida ajratish fikri bo'lsa-da, bunga qo'l urmay turib, Haydar urush ochadi. "Qudrat bobida o'zini ikkinchi, birinchi o'ringa Allohni emas, Asadbekni qo'yuvchi" Haydarning Asadbekni davolovchi tabibni topib kelib, uning marhamatiga erishish istagi ota uchun tiriklik suvini izlab yo'lga chiqqan o'g'il obrazini yodga soladi. Xuddi ertakdagi otani faqat ushbu obihayot qutqara olishi kabi tuzalmas kasalga yo'liqqan Asadbekni "dovrug'" qozongan Abdurahmon tabibgina hayotga qaytara olardi. Ayni maqsadi amalga oshsa, Haydar "Asadbek – Chuvrindi" yashirin bitimining kulini ko'kka sovurishiga amin edi" [9. B. 28] Ammo ertakdagi katta o'g'illar kabi Haydar o'z vazifasini uddalay olmaydi-da, Jalildan yordam so'raydi.

Kesakpolvon o‘zini “xoja” bo‘lishga haqli deb bilgani uchun (albatta, Asadbek “taxtdan tushgach”) Mahmudga bepisand munosabatda bo‘ladi. Haydar Asadbekning o‘zidan ko‘ra ko‘proq Mahmudning maslahatlariga quloq tutishini qabul qilolmaydi. Unda hasadgo‘y odamlarga xos, “Qobil sindromi” deb ataluvchi ruhiy tushkunlik boshlanadi [15]. Avvalboshdan Asadbekdagi Mahmudga nisbatan o‘zgacha e’tirof Haydar yuragida olov yoqib kelgan bo‘lsa, Asadbekning kasalligini bilgach, ikkisining munosabatlari yanada yaqinlashayotgandek, o‘zi chetga surib chiqarilayotganday tuyuladi: “Asadga nima bo‘ldi? Nima uchun dardini mendan yashirdi? Nima uchun bu sirni Mahmud bilishi mumkin-u, men bexabar qolishim kerak?.. Mahmud-chi? Mendan ko‘rgan yaxshiliklariga javobi shumi? Chuvrindi degani chuvrindiligicha qolarkan-da, a? Asadning o‘rniga ishtaha saqlayaptimi? Menga xo‘jayin bo‘lmoqchimi?.. Yebsan!” [9. B. 17].

Shunday shubha va gumonlar ta’sirida oxir-oqibat Haydar Mahmudni o‘yindan chiqarishga urinadi va “soxta qahramon” funksiyasini bajarishga o‘tadi.

Xulosa

Xulosa qilinsa, mazkur romanda arxetipik sxema invariantdagi asosiy xususiyatlarni saqlagan, shu jihatdan boshqa variantlar bilan tipologik jihatdan o‘xshash. Ammo davr ijtimoiy-tarixiy konteksti, muallif diniy-ma’naviy pozitsiyasiga ko‘ra originallik kasb etgan. Qahramonlarga xos alohida xususiyatlarning ta’kidlab ko‘rsatilishi uch og‘ayni arxetipik obrazini yaxlit paradigma, Asadbek – Haydar – Mahmud obrazlarini paradigma a’zolari – birliklari sifatida shakllantirgan.

Adabiyotlar:

1. *Гольденберг А.Х.* Архетипы в поэтике Н.В.Гоголя. – Москва: Флинта, 2023. – 261 с.
2. *Malik T.* Шайтанат. Роман (1-китоб: Қасос). – Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 416 б.
3. *Malik T*. Шайтанат. Роман (5-китоб: Азозил дўкони). –Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 592 б.
4. *Мелетинский Е.М*. О литературных архетипах. – Москва: Российский государственный гуманитарный университет, 1994. –136 с.
5. Спираль архетипов или Путешествие Героя [Электронный ресурс]. URL: https://vk.com/@poets_of_the_style-spiral-arhetipov-ili-puteshestvie-geroya (Дата обращения: 20.02.2024)
6. *Пьюзо М*. Чўқинтирган ота ёхуд мафия сардори. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 544 б.
7. *Мелетинский Е.М*. От мифа к литературе. Москва: Российский государственный гуманитарный университет, 2001. –168 с.
8. *Нурмонов А*. Танланган асарлар. III жилдли. 3-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 318 б.
9. *Malik T*. Шайтанат. Роман (3-китоб: Семирган чумоли). – Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 416 б.
10. *Malik T.* Шайтанат. Роман (4-китоб: Оққуш қўшиғи). –Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 528 б.
11. *Malik T*. Шайтанат. Роман (2-китоб: Нон берган жон олмайди). – Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 432 б.
12. *Қуронов Д.* Ўтган кунлар: Мифопоэтик таҳлил тажрибаси. / Китобда: Қуронов Д. Адабий ўйлар. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. –112 б.
13. *Дюма А.* Уч мушкетёр. Роман. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – 848 б.
14. *Banerjee R.* The Power of the Third with Tritagonists [Online]. URL: https://www.educationworld.in/the-power-of-the-third-with-tritagonists/. (Date of Access: 15.01.2023)
15. *Мухина В.* Уникалный диапазон понятия “Архетип”. [Online]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/unikalnyy-diapazon-ponyatiya-arhetip. (Date of Access: 20.02.2024)

THE ARCHETYPAL IMAGE OF THE THREE BROTHERS IN THE NOVEL BY TAHIRA MALIK "THE DEVILRY"

Fotima O. Mamtaliyeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 7 (83). 64-71.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: paradigm, Cain syndrome, archetypal spiral, elder, middle, younger.

This article analyzes the archetypal image of three brothers in the novel 'Iblis' by writer Tahir Malik as a paradigm. The images of Asadbek, Haydar, and Mahmud in the novel are identified as paradigmatic units, and the semantic contradictions between them are revealed.

In particular, the characteristics of the elder, middle and younger characters are explained based on the table. Asadbek/Mahmud – Haidar (elder/younger – middle), Asadbek/Haydar – Mahmud (elder/middle – younger), Mahmud/Haydar – Asadbek (middle/younger – elder), Asadbek – Haidar (elder – middle), Asadbek – Mahmud (elder – younger), Haidar – Mahmud (middle – younger) are divided into oppositions.

The explanation of each opposition was widely analyzed. For example, the first opposition takes into account the pedigree and social background of the hero, the next one – the social status of the characters at the same time, the third opposition – signs of dominance, and the fourth – contrasts physical strength and spiritual wealth. In subsequent conflicts, along with different sides of the heroes, integrative moments were also taken into account.

The analysis uses comparative typological and structural methods.

The archetypal scheme in the novel is studied by analogy with the novels 'The Godfather' by Mario Puzo and 'The Three Musketeers' by the French writer Alexandre Dumas.

In particular, the characters are compared to the heroes of the novel 'The Three Musketeers': Athos, Porthos and Aramis. The character of Vito Corleone in the novel 'The Godfather' is compared with Asadbek. Both heroes have similar qualities, such as the desire to dominate, not bow to fear and bravely fight enemies. Also, in the characters of Asadbek and Vito Corleone, the primacy of the paternal function over the function of the firstborn is revealed. But there are certain differences in the character of Asadbek, unlike Vito Corleone, he does good not because it will benefit someone else, but from the heart.

The transformation of the image of the bald, youngest son in the tale of Mahmud is one of the paradigmatic units. Asadbek liked his character, intelligence and wisdom in many places.

Also, the character traits, interactions and actions of the novel's heroes are based on mythical characters and plot situations from other sources. In particular, the spiritual closeness of Asadbek and Mahmud resembles the relationship of the Greek heroes Achilles and Patroclus. It was noted that Haidar was unable to see Mahmud and sentenced him to an innocent death. In this regard, the image of Haidar is likened to Cain.

References:

1. Goldenberg, A.X. (2023) *Arxetipi v poetike N.V.Gogolya* [Archetypes in the poetics of N. V. Gogol]. Moscow: FLINTA

2. Malik, T. (2018). *Shaytanat* [The devilry. Novel (Book 1: Revenge)]. Tashkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

3. Malik, T. (2018). *Shaytanat* [The devilry. Novel (Book 5: Azazil shop)]. Tashkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

4. Meletinskij, E.M. (1994) *O literaturnyh arhetipah* [About literary archetypes]. Moscow: Rossijskij gosudarstvennyj gumanitarnyj universitet.

5. Spiral' arhetipov ili puteshestvie geroya [The Spiral of Archetypes or the Hero's Journey]. [Online]. URL: https://vk.com/@poets_of_the_style-spiral-arhetipov-ili-puteshestvie-geroya (Date of access: 20.02.2024)

6. Pyuzo, M. (2019) *Cho'qintirgan ota yoxud mafiya sardori* [The Godfather]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

7.Meletinskij, E.M. (2001) *Ot mifa k literature* [From myth to literature]. Moscow: Rossijskij gosudarstvennyj gumanitarnyj universitet.

8. Nurmonov, A. (2012) *Tanlangan asarlar [Selected works]. 3-* [The favourites]. In 3 volumes. Vol.3. Tashkent: Akademnashr.

9. Malik, T. (2018). *Shaytanat. 3-kitob: Semirgan chumoli.* [The devilry. Novel (Book 3: Fat ant). Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

10. Malik, T. (2018). *Shaytanat. 4-kitob: Oqqush qo‘shig‘i.* [The devilry. Novel (Book 4: Swan song). Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

11. Malik, T. (2018). *Shaytanat. 2-kitob: Non bergan jon olmaydi.* [The devilry. Novel (Book 2: Who gives bread does’nt take life)]. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

12. Quronov, D. (2016) *O‘tkan kunlar: Mifopoetik tahlil tajribasi* [By days gone: Experience of mythopoetic analysis. In the book: Kuronov D. Literary thoughts]. Tashkent:Turon zamin ziyo.

13. Dyuma, A. (2012) *Uch mushketyor. Roman* [Three musketeers. Novel]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

14. Banerjee, R. *The Power of the Third with Tritagonists*. [The Power of the Third with Tritagonists]. [Online]. URL: https://www.educationworld.in/the-power-of-the-third-with-tritagonists/. (Date of Access: 15.01.2023)

15. Muxina, V. *Unikalniy diapason ponyatiya “arxetip”* [Unique tuning fork “archetype”]. [Online]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/unikalnyy-diapazon-ponyatiya-arhetip. (Date of Access: 20.02.2024)

Muallif haqida ma’lumot:

MAMTALIYEVA Fotimaxon Odiljon qizi – Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: fotimamamtaliyeva@gmail.com